

09.04.2025 y.
06-06/17



Navoiy viloyatidagi Jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan yosh mahkumlarining bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularning iqtidorlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Yoshlar bilan 10 kun" loyhasini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish bo'yicha
CHORA-TADBIRLAR REJASI

O'tkazish joyi: Navoiy viloyatidagi mavjud Jazoni ijro etish muassasalarida.
O'tkazish vaqti: 2025-yil 10-20 aprel kunlari

T/r	Tadbir nomi	O'tkazish vaqti va joyi	Tadbirni o'tkazishga mas'ullar
1.	"Yoshlar bilan 10 kun" loyhasini yuqori saviyada tashkil etish bo'yicha tashkiliy qo'mita yig'ilishini o'tkazish.	2025-yil 9-aprel viloyat hokimligi	D.Egamov – viloyat hokimligi kotibiyat mudiri, I.Sherov – 5-mintaqaviy hudud mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi boshlig'i,
2.	Belgilangan muassasalarda tadbirlarni o'tkazish reja jadvali va ishchi guruh tarkibini ishlab chiqish.	2025-yil 9-aprel	I.Sherov – 5-mintaqaviy hudud mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi boshlig'i, U.Baxromov – viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig'i, J.Jumayev – O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi raisi.
3.	Tadbirlar tashkil etiladigan muassasalarni mos ravishda tayyorlash, (obodonlashtirish) zaruriy texnik jihozlar (mikrofon, ovoz kuchaytirgich vositasi) bilan ta'minlash.	Belgilangan reja asosida	I.Sherov – 5-mintaqaviy hudud mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi boshlig'i, N.Niyazov – viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig'i.

T/r	Tadbir nomi	O‘tkazish vaqti va joyi	Tadbirni o‘tkazishga mas’ullar
4.	“Yoshlar bilan 10 kun” loyihasi o‘tkaziladigan muassasalarni bezatish va bannerlar o‘rnatish.	Belgilangan reja asosida	I.Sherov – 5-mintaqaviy hudud mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi boshlig‘i.
1-kun			
5.	Jazo muddatini o‘tayotgan yosh mahkumlar bilan manzilli ishlash maqsadida psixolog uchrashuvlarini tashkil etish hamda ular bilan sotsiologik so‘rovnomma o‘tkazish.	Belgilangan reja asosida	I.Sherov – 5-mintaqaviy hudud mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi boshlig‘i, M.Kalonov – Navoiy davlat universiteti rektori, Viloyat ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi.
6.	Jazo muddatini o‘tayotgan yoshlar ishtirokida sportning shaxmat-shashka, stol tennisi, armresling turlari hamda milliy o‘yinlar tosh ko‘tarish, argon tortish bo‘yicha musobaqalarni tashkil etish.	Belgilangan reja asosida	I.Sherov – 5-mintaqaviy hudud mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi boshlig‘i, J.Murtozayev – viloyat sport boshqarmasi boshlig‘i.
7.	Turli millat vakillari jazo muddati o‘tayotganligidan kelib chiqqan holda “Bir yurtida yashayotgan yakdill xalqimiz” mavzusida viloyatimizda faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar va do‘stlik jamiyati mas’ullari, a’zolari ishtirokida madaniy-ma’rifiy tadbirlar hamda yosh ijodkorlar ishtirokida “Quvnoqlar va zukkolar” jamoalarining chiqishlarini tashkil etish.	Belgilangan reja asosida	N.Niyazov – viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig‘i, Viloyat ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi, Milliy madaniy markazlar.
8.	Jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o‘tayotgan yosh hunarmandlarning amaliy ishlar (<i>yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik, zargarlik, zarardo‘zlik, kashachilik va hokozo</i>) yo‘nalishida “Eng yaxshi usta” tanlovini tashkil etish hamda hunarmandchilik ko‘rgazmalarini namoyish etish.	Belgilangan reja asosida	D.Shakarov – Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi rahbari, J.Jumayev – viloyat “Hunarmandlar” uyushmasi rahbari.
9.	Jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o‘tayotgan yoshlar ishtirokida “Champion va yoshlar” loyihasi doirasida uchrashuvlarini tashkil etish.	Belgilangan reja asosida	I.Sherov – 5-mintaqaviy hudud mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi boshlig‘i, J.Murtozayev – viloyat sport boshqarmasi boshlig‘i.

T/r	Tadbir nomi	O'tkazish vaqti va joyi	Tadbirni o'tkazishga mas'ullar
2-kun			
10.	Jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini va kitobga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida “Zukko kitobxon” tanlovini tashkil etish.	Belgilangan reja asosida	B.Sadriddinov – viloyat yozuvchilar uyushmasi rahbari, J.Jumayev – O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi raisi, Viloyat ma'naviyat va ma'rifat bo'limi.
11.	Bugungi kunda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar Tadbirkorlik yo'nalishi, “Zamonaviy kasblar”, “Ibrat”, “Mutolaa”, “Ustoz AI”, “Uzchess” kabi va loyihalar taqdimotini tashkil etish.	Belgilangan reja asosida	J.Mardiyev – “Yoshlar – kelajagimiz” jamg'armasi viloyat filiali rahbari, U.Baxromov – viloyat Yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig'i.
12.	Jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida “Yoshlar va qonun” loyihasi o'tkazish.	Belgilangan reja asosida	I.Sherov – 5-mintaqaviy hudud mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi boshlig'i, U.Abdullayev – viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i
13.	“Qalb tarbiyasida she'riyat” shiori ostida viloyatimizdagi tanikli shoirlar ishtirokida she'rxonlik tadbirlarini tashkil etish	Belgilangan reja asosida	B.Sadriddinov – viloyat yozuvchilar uyushmasi rahbari, J.Jumayev – O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi raisi, Viloyat ma'naviyat va ma'rifat bo'limi.
14.	Jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan yoshlarning mantiqiy bilimlarini oshirish, ularni intellektual salohiyatini yuksaltirish maqsadida “Bilindon” viktorinasini tashkil etish.	Belgilangan reja asosida	U.Baxromov – viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig'i, J.Jumayev – O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi raisi
15.	Jazo muddatini o'tayotgan yosh mahkumlar o'rtasida ularning bilim salohiyatini oshirish hamda dunyoqarashlarini yanada kengaytirish maqsadida “Zakovat” intellektual o'yimini o'tkazish.	Belgilangan reja asosida	U.Baxromov – viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig'i, J.Jumayev – O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi raisi, O.Hamroyev – “Zakovat” NNT rahbari.

T/r	Tadbir nomi	O'tkazish vaqti va joyi	Tadbirni o'tkazishga mas'ullar
16.	Jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan yoshlar ishtirokida “Rahbar va yoshlar” uchrashuvini tashkil etish	Belgilangan reja asosida	Sh.Djo'rayev – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha (ombudsman) Navoiy viloyat vakili, I.Sherov – 5-mintaqaviy hudud mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi boshlig'i, U.Baxromov – Viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig'i, J.Jumayev – O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi raisi.
17.	Jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan yoshlarning madaniy xordiq olishi va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida konsert dasturi va loyihalarda faol ishtirok etgan yoshlarni taqdirlash marosimini tashkil etish.	Belgilangan reja asosida	N.Niyazov – viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig'i, I.Sherov – 5-mintaqaviy hudud mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi boshlig'i.
18.	Loyiha yakunida faol ishtirok etgan yoshlarni taqdirlash marosimiga ularning ota-onalari va yaqinlarini taklif etish va taqdirlash choralari ko'rish.	2025-yil 20 aprel	Sh.Djo'rayev – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha (ombudsman) Navoiy viloyat vakili, I.Sherov – 5-mintaqaviy hudud mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi boshlig'i.
19.	Loyiha doirasida amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalari orqali yoritish hamda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida axborot kiritish.	Tadbirlar doirasida, 21 aprel	Sh.Raubayeva – viloyat hokimligi matbuot xizmati, A.Muqimov – viloyat teleradiokompaniyasi direktori.

T/r	Tadbir nomi	O'tkazish vaqti va joyi	Tadbirni o'tkazishga mas'ullar
Muassasalarda tadbirlarini o'tkazish jadvali			
1.	4-sonli JIEK (Navoiy shahri)	2025-yil 10-11 aprel kunlari	D.Egamov – viloyat hokimligi kotibiyat mudiri, Sh.Djo'rayev – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha (ombudsman) Navoiy viloyat vakili, I.Sherov – 5-mintaqaviy hudud mintaqaviy muvofiglashtirish markazi boshlig'i, U.Baxromov – viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig'i, J.Jumayev – O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi raisi.
2.	36-sonli MK (Zarafshon shahri)	2025-yil 12-13 aprel kunlari	
3.	12-sonli JIEK (Zarafshon shahri)	2025-yil 14-15 aprel kunlari	
4.	5-sonli JIEK (Qiziltepa tumani)	2025-yil 16-17 aprel kunlari	
5.	11-sonli JIEK (Navoiy shahri)	2025-yil 18-19 aprel kunlari	

Viloyat hokimligi kotibiyat mudiri

Viloyat Yohlar ishlari boshqarmasi boshlig'i

O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi raisi

5-mintaqaviy hudud mintaqaviy muvofiglashtirish markazi boshlig'i


D.Egamov

U.Baxromov


J.Jumayev


I.Sherov